

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70811701 – *Ipakchilik va tutchilik*
magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/p		Bet
1.	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik va tutchilik</i>) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....	4
1.1	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2	Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
1.2.1	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatining obyektlari.....	5
1.2.3	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistr-larning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistr-larning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya	9
2.3.2	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar....	10
2.3.3	70811701 – <i>Ipakchilik va tutchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	10
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. 70811701 – *Ipakchilik va tutchilik* magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70811701 – *Ipakchilik va tutchilik* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. O'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil. Uning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «magistr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabi **70811701 – *Ipakchilik va tutchilik*** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70811701 – *Ipakchilik va tutchilik* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. 70811701 – *Ipakchilik va tutchilik* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70811701 – *Ipakchilik va tutchilik*- magistratura mutaxassisligi - “*Ipakchilik va tutchilik*” ta'lim sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab

chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida ipakchilik faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek tutchilik tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70811701 – *Ipakchilik va tutchilik* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlar tizimi;
- ipakchilik sohasidagi huquq-tartibot va qonuniylikni ta'minlash jarayonlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi, uning hududiy bo'limlari, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi, uning hududiy bo'limlarida boshqaruv organlarida boshqaruv jarayonlari;
- ipakchilik tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiya, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, holding, ishlab chiqarish birlashmalarida boshqarish jarayonlari;
- ipakchilik sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

1.2.3. 70811701 – *Ipakchilik va tutchilik* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- huquq-tartibot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 70811701 – *Ipakchilik va tutchilik* mutaxassisligi bo'yicha magistr larning kasbiy vazifalari:

70811701 – Ipakchilik va tutchilik mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari,

ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Huquq-tartibot faoliyatida:

- qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati sub'ektlarining turli mulk shakllarini himoya qilish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish;
- Soha rivojlanishiga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ipakchilik sohasidagi jinoyatlar va qonunbuzarliklarni profilaktika qilish, ogohlantirish, aniqlash va ochish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini

optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- ipakchilik sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ipakchilik sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

- kasbiy etika qoidalariga rioya qilish.

2. 70811701-*Ipakchilik va tutchilik* mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish;

- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ipakchilik sohasi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ipakchilikda yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish, barcha toifadagi xo'jaliklarning mavjud baliqlari sonini ko'paytirish, mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqilgan mahsulot sifatini yaxshilash usullari bo'yicha fermer xo'jaliklari xodimlariga maslahat berishi;

- ipakchilikda innovatsion ishlanmalar bo'yicha tahlillar tuzishi;

- magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish;

2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma – ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, ilmiy amaliyot (tajriba orttirish), ilmiy-pedagogik ish, ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligining ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy faoliyatining sohalarini egallashga qaratilgan, bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligining ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslasligidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita mutaxassisligining kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab – quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistrlar ta'lim mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot (tajriba orttirish), ilmiy-pedagogik ish, ilmiy-tadqiqot ishi bilan uyg'unlashtirib, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish yordamida malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1 Kvalifikatsiya: tadqiqotchi-pedagog, Ipakchi-agronom, Naslchilik stantsiyasi seleksioneri, urug'chilik korxonasi muhandisi.

2.3.2 70811701 – Ipakchilik va magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3 70811701 – Ipakchilik va tutchilik) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy ko-di	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MFM2440	Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO‘MM1404	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	2
1.03	IPITUTITUM1404	Ipakchilikda va tutchilikda ilmiy tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	IPQFB1404	Ipak qurti fiziologiyasi va biokimyosi	120	4	2
1.05	IPTUTNAZMM1406	Ipakchilik va tutchilikning nazariy asoslari va zamonaviy muammolari	180	6	1
1.06	IPTUTZIT1406	Ipakchilik va tutchilikda zamonaviy innovatsion texnologiyalar	180	6	2
1.07	IQTUTDFFM2406	Ipak qurti va tut daraxti genofondidan foydalanish	180	6	3
1.08	IQTUTDKEDM2406	Ipak qurti va tut daraxti kasalliklari epizootologiyasi,diagnostikasi ularga qarshi kurashishning zamonaviy usullari.	180	6	3
1.09	TUTDFSM2406	Tut daraxti fiziologiyasi va sitogenetikasi	180	6	1
2.00		Tanlov fanlar	420	14	
2.00		<i>Tanlov fanlar (3)</i>	420	14	2,3
		Jami:	1800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	
		Jami	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKC 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, magistratura, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, ilmiy amaliyot (stajirovka), magistrlik dissertatsiyasi, baholash, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, ipakchilik, ipak qurti urug'chiligi, pilla, tut daraxti.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar istemolchilari
ISHLAB CHIQUILGAN:

Birinchi prorektor S. Islamov
2023 yil « 10 » 07
M.O.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi
Direktor SH. Yakubov

“O'zbekipaksanoat” uyushmasi
boshqaruv raisi O. Jumayev
2023 yil « 18 » 07
M.O.

Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti
Rektor K. Komilov
2023 yil « 20 » 07
M.O.

Andijon viloyati, Marhamat tumani
“IPAK KO'CHAT KLASTER” fermer
xo'jaligi rahbari A. Musurmonqulov
2023 yil « 20 » 07
M.O.

Ipakehilik ilmiy tadqiqot instituti
Direktori Sh. Abdulazizov

2023 yil « 19 » 07
M.O.

Toshkent davlat agrar universiteti 70811701- Ipakchilik va tutchilik magistr mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiqaruvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent viloyati

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar - Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov, Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti direktori Sh.Abdulazizov, Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektor S.Islamov birgalikda ToshDAUda ishlab chiqilgan quyidagi Magistr mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70811701- Ipakchilik va tutchilik magistr mutaxassisligi

Malaka talablari xamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari tugrisida”gi PD-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ulariing mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son qarorlariga xamda oliy ta'lim soxasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistr mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablar va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Andijon qishloq xo'jaligi
va agrotexnologiyalar instituti
rektor



K.Komilov

Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti
direktori



Sh.Abdulazizov

Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektor



S.Islamov